(«Mirzo Ulug‘bek»)

Bu yerda personaj nutqida sinekdoxa bilan metafora qo‘shilib ketgan. Chunki bu yerda so‘zlovchi kalla deb kishining o‘zini ko‘zda tutadi. Uning boshini xumga o‘xshatish bilan “quruq, aqli yo‘q” degan ma’noni ifodalaydi.

Netayxon. Erga tegasanmi? Hoy, **kalla,** senga aytayotibman, juvanmarg, gapirsang-chi? («Tobutdan tovush»). Bu yerda ham personaj nutqida kalla so‘zi butun odam ma’nosida kelgan, lekin esi yo‘q, ma’-nosi ham nazarda tutilgan.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, kalla so‘zi ko‘proq kishiga nisbatan salbiy emotsional baholash ma’nosini o‘zida tashiydi hamda so‘zlovchining mensimasligi, kamsitishi, do‘q urishi kabi uslubiy ma’nolarni qo‘shib ifodalaydi. Natijada personaj nutqida obrazlilik, emotsionallik yuzaga keladi.

B) Butun o‘rnida qism qo‘llanib, sinekdoxa hosil bo‘lishiga millat nomining o‘sha millatga mansub bir qism kishilar ma’nosida (yoki aksincha) qo‘llanishi ham misol bo‘ladi.

Dehqonboy. Nemisni qayerga quvib bording?

Qo‘ziyev. Nemisga yetolmadim, aka, kelishda qadamlab keldi-yu, qochishda yomon ham shataloq otib qochdi-ya! («Shohi so‘zana»).

Bu yerda go‘yo bir nafar nemis millatiga mansub kishi haqida gap ketayotganday muomala qilingan. Aslida, nemis millatiga mansub bosqinchi guruh – dushman askarlari ma’nosi anglashiladi.

Ushbu nutq parchasida metafora hodisasi ham mavjud. Shataloq otib qochmoq hayvonga xos xususiyatdir. Uni dushmanlar harakatiga nisbatan qo‘llashda o‘ta masxara qilish ifodasi mavjud.

D) butun uy ma’nosida uning bir qismi – «**ostona**»ning o‘zi qo‘llanilishi.

Po‘latjon domla. Qizingizning baxtini birovlarning **ostonasidan qidirmang.**

(«Og‘riq tishlar»).

E) sinekdoxaning ommalashib ketgan ko‘rinishlaridan biri sifatida **«oqsoqol», «oqsoch»** so‘zlarining kishi ma’nosida qo‘llanishidir.

Berdiyor.

Endi asl bosh to‘rani ko‘rgil, **(oqsoqol!)**

1 fuqaro.

Ey **oqsoqol,** taxt bor joyda, shohlar bor joyda

Urushmasa, sardorlarning qilichi zanglar.

Nigorxonim.

Firuza kim? Bir kanizak, makkora, **oqsoch!** («Mirzo Ulug‘bek»)

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

O‘zbek dramatik asarlarida sinekdoxa – qisqalik va ta’sirchanlikni birlashtiruvchi kuchli vosita sifatida shakllangan. O‘zbek dramaturglari milliy qadriyatlarni, insoniy orzu-umid va ijtimoiy muammolarni kichik detal vositasida keng ma’noda ifodalashga muvaffaq bo‘lishgan. Demak, ma’no ko‘chdi degan so‘z-tushuncha ko‘chdi degan so‘z, shu tushuncha ifodalagan narsa, belgi yoki harakat ko‘chdi degan so‘z; narsa, belgi yoki harakat ko‘chdi degan so‘z, shu harakat, belgi, narsa boshqa harakat, belgi, narsaga o‘tdi (aylandi) degan so‘zdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent, ”Fan”, 1977.

(2). Калинин А.В. Лексика русского языка. М., МГУ, 1978, 232 с.

(3). Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. T., “Fan”, 1990, 112-bet.

(4). Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., “Советская энциклопедия”, 1966, 608 с.

(5). Чижик-Полейко А.И. Стилистика русского языка. Воронеж, 1962, 116 с.

(6). Долинин К.А. Стилистика французского языка. Л.,“Просвещение”, Ленинградское отделение, 1978, 344 с.

(7).Tilshunoslik masalalari (to‘plam). T., “Fan”, 1978, 308-bet.

Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna (Farg‘ona davlat universiteti, “Ingliz tili amaliy kursi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD; shahloxonkarimjonova@gmail.com; ORCID ID 0009-0006-0224-3315)

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARDAGI VIZUAL KOGNITIV FE’LLARNING STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola o‘zbek va ingliz tillaridagi vizual kognitiv fe’llarning leksik-grammatik tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqotda ko‘rmoq, kuzatmoq, qaramoq kabi o‘zbek tilidagi fe’llar va see, observe, look, watch kabi ingliz tilidagi fe’llar tahlil qilinadi. Tahlil ikki tildagi vizual idrok jarayonlarini ifoda-*

lovchi fe'llarning leksik xususiyatlarini, sinonimik va antonimik munosabatlarini, shuningdek, grammatik shakllarini va yasalish usullarini o'rganishga qaratilgan. Fe'llarning ma'no qatlamlari, semantik farqlari va kontekstdagi o'zgarishlari ko'rib chiqiladi. Maqolada har bir fe'lning tilshunoslik nuqtayi nazaridan farqlari va ularning ikki tilda qanday tarjima qilinishiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek va ingliz tillarida vizual kognitiv fe'llarning semantik tizimlari va ularning o'zaro ekvivalentligi haqida muhim xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: *vizual kognitiv fe'llar, leksik-grammatik tahlil, sinonimlar, antonimlar, semantik farqlar, grammatik shakllar, so'z yasalishi, tildagi farqlar, o'zbek tili, ingliz tili, fe'l ma'nosi, semantik tizim.*

СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВИЗУАЛЬНЫХ КОГНИТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *Настоящая статья посвящена лексико-грамматическому анализу визуальных когнитивных глаголов в узбекском и английском языках. В исследовании анализируются такие узбекские глаголы, как "ko'rmoq", "kuzatmoq", "qaramoq" и английские глаголы "see", "observe", "look", "watch". Анализ направлен на изучение лексических особенностей этих глаголов, их синонимических и антонимических рядов, а также грамматических форм и способов словообразования. Рассматриваются смысловые слои глаголов, их семантические различия и изменения в зависимости от контекста. В статье уделено особое внимание различиям в языковедческом аспекте каждого глагола и их переводу между двумя языками. На основе результатов исследования сделаны важные выводы о семантических системах визуальных когнитивных глаголов в узбекском и английском языках и их взаимных эквивалентах.*

Ключевые слова: *визуальные когнитивные глаголы, лексико-грамматический анализ, синонимы, антонимы, семантические различия, грамматические формы, словообразование, различия в языке, узбекский язык, английский язык, смысл глаголов, семантическая система.*

STRUCTURAL FEATURES OF VISUAL COGNITIVE VERBS IN UZBEK AND ENGLISH

Annotation. *This article is dedicated to the lexicogrammatical analysis of visual cognitive verbs in Uzbek and English. The study examines Uzbek verbs such as "ko'rmoq", "kuzatmoq", and "qaramoq", as well as English verbs like "see", "observe", "look", and "watch". The analysis focuses on the lexical features of these verbs, their synonymic and antonymic series, as well as their grammatical forms and methods of word formation. The article explores the semantic layers of the verbs, their semantic differences, and how they change according to the context. Special attention is given to the differences in the linguistic aspects of each verb and their translation between the two languages. Based on the research findings, important conclusions are drawn regarding the semantic systems of visual cognitive verbs in Uzbek and English and their mutual equivalences.*

Keywords: *visual cognitive verbs, lexicogrammatical analysis, synonyms, antonyms, semantic differrences, grammatical forms, word formation, language differences, Uzbek language, English language, verb meanings, semantic system.*

Kirish. O'zbek va ingliz tillaridagi vizual kognitiv fe'llarning leksik-grammatik tahlili bu ikki tildagi vizual idrok fe'llarini (masalan, ko'rmoq, kuzatmoq, qaramoq; see, observe, look, watch) grammatik shakllari, yasalish usullari, boshqarish xususiyatlari va birikish modellari jihatidan tahlil qilishdir. Ushbu tahlil mazkur fe'llarning so'z yasalish mexanizmlari, ularning sintaktik munosabatlari va vazifalari, semantik farqlari va nutq vaziyatiga ko'ra o'zgarishining qanday amalga oshishini aniqlashga qaratilgan.

Kognitiv tilshunoslik atamasi ingliz tilidagi cognitive – "bilishga oid" so'ziga asoslangan (masalan: cognize – "bilmoq, anglamoq, tushunmoq", cognition – "bilish"). Ma'lumki, dunyo va borliqni bilish hamda idrok etish murakkab jarayon. Ba'zan, bilish jarayoni to'g'ridan to'g'ri anglash yoki tushunish harakatlari bilan bog'lanadi. Shunga qaramay, hayvonlarda ham (garchi sodda shaklda bo'lsa-da) anglash, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatining mavjudligi ilmiy jihatdan tasdiqlangan.

Sh.Safarovning fikriga ko'ra, kognitiv tilshunoslik turli fanlararo muloqot mahsuli hisoblanadi. U kognitiv bilimlar, xususan, til kabi murakkab tadqiqot obyektini o'rganishga intilgan har qanday soha muqarrar ravishda murakkab muammolar bilan yuzlashishini ta'kidlaydi. Shunga qaramay, kognitiv bilimlarni o'rganishdagi qiyinchiliklar bu sohadagi izlanishlarga bo'lgan qiziqishni susaytira olmaydi. Ong haqidagi bilimlarning turli faoliyat turlarida qo'llanilishi ushbu tadqiqotlarning ahamiyatini yanada oshiradi. Ilm-fan esa turli soha vakillarini kognitiv izlanishlarga jalb etishga undaydi. Natijada kognitiv bilimlarning ko'lami kengayib, bir sohada olingan bilimlar boshqa sohalardagi tadqiqotlar bilan uyg'unlashib boradi.

Kognitiv bilimlarning shakllanishi kognitologiyani alohida ilmiy yo'nalish sifatida ajratib ko'rsatishga zamin yaratdi. Bu jarayonda turli ilmiy sohalarning hissasi katta. Ushbu g'oya psixologik, falsafiy va

lingvistik adabiyotlarda ham keng yoritilgan. Masalan, J.Lakoff kognitiv fan haqida shunday fikr bildiradi: "Kognitiv fan psixologiya, lingvistika, antropologiya, falsafa va kompyuter texnikasi kabi sohalar orqali ongni o'rganish natijasida shakllangan ilmiy yo'nalishlardan biridir".

Tadqiqot metodologiyasi. Leksik-grammatik tahlilni belgilovchi asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

Leksik xususiyatlar bu fe'llar leksik ma'nosini va ularning sinonimik va antonimik qatorlarini o'rganishdir. Masalan, o'zbek tilida *ko'rmoq* umumiy vizual idrokni anglatadi, ammo *kuzatmoq* bu jarayonning uzoq davom etishi va diqqat bilan amalga oshirilishini ifodalaydi. Ingliz tilida *see* oddiy ko'rish jarayonini bildirsa, *observe* diqqat va maqsad bilan ko'zdan kechirishni anglatadi. Tahlil jarayonida bu fe'llarning qanday nuanslari borligi va ularning bir til ichidagi yoki ikki tilda bir-biriga qanday mos kelishi aniqlanadi [1].

Fe'llarning leksik xususiyatlari ularning ma'no qatlamlari, sinonimlari va antonimlarini tahlil qilish orqali aniqlanadi. Har bir tilda vizual kognitiv fe'llar biror jarayonni yoki vaziyatni tasvirlashda aniq ma'no farqlari bilan ajralib turadi.

Tahlil va natijalar. O'zbek tilida *ko'rmoq* vizual kognitiv fe'li eng umumiy vizual idrokni ifodalaydi. Bu jarayonning davomiyligi yoki qanday amalga oshirilishi haqida ma'lumot berilmaydi. Masalan, ichkaridan chiqqan chol-kampirlar mehmon bilan ko'rishayotganda, Tohir qorayib, turgan ikki g'ildirakli soyabon aravani ko'rdi (P.Qodirov. Yulduzli tunlar). *Ko'rmoq* fe'li bu misolda faqatgina obyektning mavjudligini sezish jarayoniga taalluqli, lekin uning qanday amalga oshirilganligi yoki davomiyligi haqida ma'lumot berilmaydi.

Kuzatmoq – bilish, aniqlash maqsadida sinchiklab qaramoq, ko'zdan kechirmoq (O'TIL. II, 962). Bu fe'l idrokning vizual kognitiv jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, ko'rish faoliyatining ongli, maqsadli shaklini bildiradi. Masalan, Tabrizdan nari Choldora degan joyda bo'lgan qattiq jangda Tojli begim avval bexatar tepalikda turib, shohning jangini kuzatgan (P.Qodirov. Avlodlar dovoni). Bu fe'l kontekstda davomiy jarayonni, kuzatuv jarayonining muhimligini va bu kuzatuvning voqea ishtirokchisi bo'lmagan shaxs tomonidan amalga oshirilayotganini bildiradi.

Qaramoq – ko'rish uchun ko'zni biror tomonga, narsa yoki kimsaga yo'naltirmoq, ko'z tashlamoq, nazar solmoq; boqmoq (O'TIL. IV, 58). Masalan, Yuvinib, taranib, kanizi yordamida kiyinayotganda tumor ko'ziga tashlandi-yu, darhol qo'liga olib qaradi (P.Qodirov. Avlodlar dovoni). Ushbu misolda *qaramoq* fe'-li diqqatning bevosita ma'lum bir obyektda jamlanishini, qisqa muddatli vizual idrok jarayonini va qarash natijasida yuzaga keladigan fikrlash jarayonini aks ettiradi. Bu fe'l biror narsaga e'tibor berish yoki uni aniqlik bilan ko'zdan kechirish holatlarida ishlatiladi.

Termilmoq – ko'z uzmasdan uzoq qarab qolmoq, tikilmoq; umid bilan, biror ichki hissiyot bilan boqmoq (O'TIL. V, 222). U ko'proq hissiy holat bilan bog'liq bo'lib, shaxsning ichki kechinmalari yoki kutish, hayrat, shubha bilan bog'liq holatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan: Xonzoda begim inisidan yana qandaydir murakkab xabar kutib, uning yuziga termilib qaradi (P.Qodirov. Yulduzli tunlar).

Bu fe'llar sinonimik munosabati doirasida *ko'rmoq* uchun *ko'zdan kechirmoq, anglamoq* fe'llarini; antonimik qatoriga esa *ko'rmaslik, e'tibor bermaslik* kabi vizual kognitiv fe'llarni keltirish mumkin [7].

Ingliz tilida *see* ko'zlaringiz yordamida atrofdagilarni anglash yoki ko'rish (CD). Mazkur fe'l oddiy idrokni bildiradi, hech qanday maxsus harakatni talab qilmaydi. Masalan: He lived along that coast now every night and in his dreams he heard the surf roar and saw the native boats come riding through it (E. Hemingway. The old man and the sea). U hozir o'sha qirg'oq bo'yida yashardi va har kecha tushlarida to'lqinlarning gumburlagan ovozini eshitib, mahalliy qayiqlarning to'lqinlar orasidan suzib kelayotganini ko'rardi.

Observe – kuzatmoq, sinchkovlik bilan qarab o'rganmoq (CD). Masalan: You see, but you do not observe. The distinction is clear (A.C.Doyle. Sherlock Holmes stories). Siz ko'ryapsiz, lekin kuzatmayapsiz. Farq aniq. Bu misolda Sherlock Holmes doktor Watsonning oddiy ko'rish bilan kuzatish o'rtasidagi farqni tushuntiradi. Watson narsalarni ko'rgan bo'lsa ham, ularni sinchkovlik bilan tahlil qilmagan. Holmes esa har bir detaldan muhim xulosalar chiqaradi, ya'ni maqsadli va diqqat bilan kuzatadi.

Look – qaramoq, ko'zini qaratmoq (CD). Masalan: He turned his head and looked back at Daisy as he said something low in her ear (F.Scott Fitzgerald. The Great Gatsby). U boshini burib, Daisiga qaradi va past ovozda uning qulog'iga nimadir dedi. Bu misolda *looked* fe'li Gatsbining maqsadli ravishda Daisi tomonga qarashini ifodalaydi. U shunchaki qaramayapti, balki e'tibor bilan qarayapti.

Stare – tikilib qaramoq; qandaydir sabablarga ko'ra (hayron qolganlik, qo'rqish yoki chuqur o'ylash) ko'zlarni katta ochib, uzoq vaqt biror narsaga yoki kimgadir qarab turmoq (CD). Masalan: I saw he was

looking at me fiercely; I was sure he was staring into my very soul (J.Eyre. Charlotte Bronte). Men uning menga qattiq tikilayotganini ko'rdim, u go'yo mening qalbim tubini tekshirayotgandek edi. Ushbu misolda *staring* fe'li faqat qarash emas, balki chuqur va hissiyotli tikilishni ifodalaydi. Bu, ko'pincha, hayrat, shubha yoki hissiy ta'sir kuchiga ega o'tkir nigohdir. Bu fe'llarning sinonimlari: *see* uchun – *notice, perceive;* antonimlari esa – *ignore* va *miss*dir.

Xulosa va takliflar. Leksik xususiyatlarni o'rganishda har bir fe'lning sinonimik qatori kengaytiriladi, ya'ni bir xil yoki o'xshash ma'nolarni ifodalovchi boshqa fe'llar topiladi. Shuningdek, antonimik qator ham aniqlanadi–qarama-qarshi ma'nolarni ifodalovchi fe'llar ko'rsatib beriladi. O'zbek tilidagi *kuzatmoq* va ingliz tilidagi *observe* o'rtasidagi ma'no nuanslari, ularning foydalanish hollari va kontekstdagi farqlari aniqlanadi. Shu tariqa, bu fe'llarning ikki til doirasidagi semantik tizimi va bir-biriga tarjima qili-nishi, ekvivalentliklar haqida xulosalar chiqariladi [2].

Grammatik shakllar va so'z yasalishida fe'llarning qanday usulda yasalishi, so'z turkumlari doirasidagi konversiyalar va yasalish modellari bilan bog'liq grammatik o'zgarishlar ko'rib chiqiladi.

O'zbek va ingliz tillarida vizual kognitiv fe'llarning grammatik shakllari va yasalishi bo'yicha ba'zi asosiy farqlar mavjud. Bu farqlar, avvalo, har bir tilning grammatik tizimi va so'z yasalishi usullari bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Абдуазизов А. О составных частях когнитивной лингвистики. "Хорижий филология", 2007, № 3.

(2).Ашурова Д.У. Развитие когнитивной лингвистики в Узбекистане. "Хорижий филология",2016, № 3.

(3). Беляевская Е.Г. Когнитивные основания изучения семантики слова. Структуры представления знаний в языке. М., 1994, с. 89.

(4). Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма; лингвистика – психология – когнитивная наука. "Вопросы языкознания", М., 1994, № 4, с. 37.

(5). Кузнецов А.М. Когнитология, «антропоцентризм», «языковая картина мира» и проблемы исследования лексической семантики. Этнокультурная специфика речевой деятельности. М., ИНИОН РАН, 2000, с. 9.

(6). Проскурин Е.Г. Когнитивная лакунарность текста как проблема межкультурной коммуникации. Диссертация на соис. ученой степени канд. филол. наук, Барнаул, 2004, с. 47.

(7). Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. 2-нашри, Тошкент, 2008, 65-бет.

(8). Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах, "Сангзор", 2006, 91-бет.

Shomuratova Intizor Bekchan qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti 2-bosqich doktaranti; email intizor.sh@urdu.uz)

XOS SO'ZLAR LAKUNAMI?

Annotatsiya. *Tilshunoslik fanida turli xalqlarning turmush tarzi, urf-odatlari hamda an'anaviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvistik birliklarning tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, etnografizm, dialektizm, lakuna va realiya kabi tushunchalar xalq mentalitetini o'zida mujassam qiluvchi leksik birliklardir. Ushbu maqolada mazkur birliklarning mazmuni, ularning adabiyot, tarjimashunoslik va tilshunoslikdagi o'rni, dolzarbligi hamda nazariy tahlili yoritiladi.*

КУЛЬТУРНО-СПЕЦИФИЧЕСКАЯ ЛЕКСИКА-ЛАКУНА?

Аннотация. В лингвистике важное значение имеет анализ языковых единиц, отражающих образ жизни, обычаи и традиционные ценности различных народов. Особенно такие понятия, как этнографизмы, диалектизмы, лакуны *и* реалии, *представляют собой лексические единицы, в которых воплощается менталитет народа и его культурная идентичность. В данной статье рассматриваются сущность этих единиц, их актуальность, а также теоретический анализ в контексте литературы, переводоведения и лингвистики.*

Ключевые слова: *культурно-специфическая лексика, лакуна, реалия, этнографизм, диалектизм, менталитет, эквивалентность.*

ARE CULTURE-SPECIFIC WORDS LACUNAE?

Annotation. *In linguistics, the analysis of linguistic units that reflect the lifestyle, customs, and traditional values of different nations holds significant importance. In particular, such concepts as* ethnographisms, dialectisms, lacunae, *and* realia *represent lexical units that embody the national mentality and cultural identity of a people. This article explores the semantic essence of these units, their relevance, and their theoretical analysis within the fields of literature, translation studies, and general linguistics.*

Keywords: *culturally specific vocabulary, lacuna, realia, ethnographism, dialectism, mentality, equivalence.*